



JAMIYATIMIZDA VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATINI OLDINI OLISH VA ZAMONAVIY CHORA TADBIRLARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.

Irnazarov Shuhrat

Termiz Davlat universiteti "Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi" kafedrası o'qituvchisi

Chorshanbiyev Navro'zbek Sheraliyevich

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 4 kurs 222 – guruh talabasi

Annotatsiya: *Bu maqola O'zbekiston Respublikasida Voyaga yetmaganlar bo'yicha jinoyatchilik haqida statistik keng tushunchani bilib olish, shuningdek Voyaga yetmaganlar bo'yicha avj olayotgan jinoyatchilikni oldini olish va keng chora tadbirlarni amalga oshirish, hamda bu borada yurtimizda tarbiya kaloniyalarni ham o'rni shuningdek bunday jinoyatlarni oldini olish uchun manaviy tadbirlarning ahamiyati haqida keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *voyaga yetmaganlar, statistika, huquqbuzarlik, qonunchilik, manaviy tadbir, kaloniya.*

KIRISH

Bilamizki hozirda O'zbekiston Respublikasida har sohada jadal rivojlanishlar ro'y bermoqda. Har sohada deganda faqat iqtisodiy, ijtimoiy, talim, va boshqa sohalarda emas, balki madaniy huquqiy tizimlarda ham ancha rivojlanish va o'zgarishlar ro'y berayotganini biz bunga misol qilib bermalol keltira olamiz. Shuningdek bugingi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol inson bo'lishi uchun asosiy bosh qomusimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50 – moddasida " Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi uning har xil turlari va shakillari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi.

Buning mazmunidan shuni tushunishimiz kerakki hozirda yoshlarimiz kerakli bilim va ko'nikmalarini o'z vaqtida olishlari, va o'z izlanishlari yo'lida yuqori cho'qqilarni zabt etishlari uchun yurtimizda juda katta sharoitlar mavjud. Lekin hozirda shuni e'tibordan chetga qoldirmasligimiz kerakki, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilikning avj olishi, hayotda ijobiy tomondan izlanib yuqori marralarni zabt etish o'rniga va shuningdek o'z sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lish o'rniga, aynan jinoiy yo'l bilan oson pul topish niyatida yurganlar ham yo'q emas albatta.

Hozirda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish bo'yicha kerakli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunindek qonunchiligimizda ham bu bo'yicha juda katta yangiliklarni ham guvohi bo'lmoqdamiz.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish deganda biz – huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda yakka tartibdagi profilaktika bilan bevosita bog'liqdir. Huquqiy manbalarga ko'ra, yakka tartibdagi profilaktika deganda - huquqbuzarliklarni bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g'ayriijtimoiy xulq – atvorli huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan



shaxslarni aniqlash va ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga doir faoliyati tushuniladi.

Ayrim olimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari jumlasiga quydagilarni kiritadi: yashash, o'qish yoki ish joyidagi muhitning salbiy ta'siri, o'qishni tashlab ketgan o'smirlar uzoq vaqt muayyan ish bilan shug'ullanmasligi, o'smirning noto'g'ri tarbiyalanishini belgilovchi shart – sharoit omillari, yoshi katta jinoyatchilarning dalolatchiligi, zo'ravonlik va qonunsizlikni ifodalovchi kitoblar va filmlar ta'siri. Shunindek voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining omillari sifatida quydagilar qayd etiladi ya'ni nazoratsizlik umumiy ta'lim tarbiya ishlarida mavjud kamhiliklar, ishga joylashtirishda hamda ishlab chiqarishda tarbiya ishlarini tashkil etishda mavjud kamchiliklar hamda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish hamda unga qarshi bevosita kurash olib borish vazifalari zimmasiga yuklangan organlar faoliyatidagi kamchiliklar ham yog' emas albatta. Masalan : Voyaga yetmagan o'smir mayda o'g'rilik huquqbuzarlik ekanini buning oqibatida javobgarlik masalasi borligini huquqiy ongi huquqiy madaniyati yetishmasligi va huquqiy tarbiyaga ega emasligi uchun bilmaydi.

Xo'sh shundan kelib chiqib natija nima bo'ladi degan savolga biz ana shunday mayda huquqbuzarliklar o'rnini katta jinoyatlar egallaydi degan to'xtamga kelishimiz mumkin. Shuning uchun ham jamiyatimizda ro'y berayotgan huquqiy o'zgarishlar va huquqiy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan masalalar yoshlarga o'z vaqtida yetib borishi kerak. Ya'n yoshlar jinoyat sodir etgandan keyin emas, balki shaxsning jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida bu borada ko'plab ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Sir emaski o'smirlar bu boradagi jinoiy javobgarlik jazo choralari to'g'risidagi ma'lumotlarni faqat jinoyat sodir etganlaridan keyingina huquqni muxofaza qiluvchi organ xodimlaridan eshitib tushunib olishadi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligi bilan bir xil sabablarga ega, biroq ularning yoshlar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga ta'sir ko'rsatish mexanizmi ancha farq qiladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sharoiti deganda ular sodir etadigan jinoyatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki barham topishi bilan bog'liq omillar yig'indisi tushuniladi. Lekin biz umumiy olib qaraganimizda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari katta yoshdagilar jinoyatchiligiga ta'sir qiladigan sabablar hisoblanadi. Kriminologik olimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari siatida quydagi holatlarni ham ko'rasatib o'tadilar: oiladagi va turmushdagi salbiy ta'sirlar, nosog'lom turmush tarsi, yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo'lish, o'qishga qiziqishi past bo'gan voyaga yetmaganlarning biror mashg'ulot bilan shug'ullanmasligi, o'smirning noto'g'ri qabul qilishga sabab bo'ladigan xolatlarning voyaga yetmagan shaxsga juda qiyin kechishi, katta yoshdagi doimiy jinoyat bilan shug'ullanib kelayotagn shaxslarga qo'shilib qolish, zo'rlik ishlatishlar yozilgan turli kitob va videolarning ta'siri, hayotdagi omadsizliklar va axloqiy e'tiqodlarning turg'un emasligi, ruhiy holatdagi ayrim sifatlar va shunga o'xshash boshqa ta'sirlarni ham biz keltiraolishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarga bo'lgan e'tibor nafaqat ijtimoiy yoki siyosiy holatlarda, hatto jinoyat sodir etib aybli deb topilganda ham alohida insonparvarlik munosbatlari qonunlashtirib berilgan.



Jumladan, voyaga yetmaganlar javobgarligi, ularning o'ziga xos xususiyatlari ularning huquqlari alohida himoyalanganligi va jazolarni belgilash va o'tash jarayonidagi insonparvarlik xususiyatlari qonunda alohida belgilangan. Masalan: hozirda voyaga yetmaganlar jinoyatini oldini olish va ijobiy tomondan o'zgartirish uchun yurtimizda tarbiya kaloniyalari ham ancha katta ro'l o'ynamoqda. Tarbiya kaloniyalarda hozirda juda katta o'zgarishlar va voyaga yetmaganlar uchun yaxshi sharoitlar va ilmiy tomonda ham mukammal bo'lish uchun kaloniya ichida kutubxona va boshqa sharoitlar albatta mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat – ijroiya kodeksiga ko'ra voyaga yetmasdan turib, jinoyat sodir etgan shaxslar tarbiya kaloniyalarida jazoni o'taydilar. Tarbiya kaloniyalarida mahkumlar voyaga yetmagunlariga qadar saqlanishlari mumkin. Voyaga yetganlaridan so'ng ular jazoni o'tash kaloniyalariga o'tkazilishi mumkin. Masalan bu haqida Jinoyat – ijroiya kodeksining 129 moddasiga asosan, agarda mahkumlar yigirma bir yoshga to'lganidan salbiy tavsifga ega mahkumlar esa o'n sakkiz yoshga to'lganidan keyin jazo o'tashni davom ettirish uchun tarbiya kaloniyasidan umumiy tartibli kaloniyaga o'tkaziladi.

Extiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun hukm qilingan mahkumlar o'n sakkiz yoshga to'lganidan keyin jazo o'tashni davom ettirish uchun ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil – kaloniyalariga o'tkaziladi.

Voyaga yetmagan mahkumning ijobiy xulqi, mehnatga bo'lgan halol munosabati va boshqalarga o'rnak bo'la olishligi hisobiga olinib jazo o'tashni davom ettirish uchun mahkumlarni jazoni ijro etish kaloniyasiga o'tkazish masalalari sud tomonidan Jinoyat – protsessual kodeksining 537 – moddasining 4 – bandida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. O'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumni tarbiya kaloniyasidan jazoni ijro etish kaloniyasiga o'tkazish masalasini hal etishda sudya uning tuzalish darajasini hisobga olishi lozim. Mahkum tarbiya kaloniyasida jazoni o'tash muddatini davom ettirish uchun uzog'i bilan yigirma besh yoshga to'lgunga qadar qoldirilishi mumkin.

Tarbiya kaloniyalarida ham mahkumlarning yengillashtirilgan imtizyozli va oddiy sharoitlari mavjud. Bundan tashqari, intizomsiz ichki tartib qoidalarini doimiy buzuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan hibsxonalar mavjud bo'lib, ularga qo'yilgan mahkumlarning sharoiti, albatta og'irlashtiriladi. Jinoyat – ijroiya kodeksining 127 moddasida tarbiya kaloniyasida hibsxonaga kiritib qo'yish tashqaridagi intizomiy jazo o'n to'rt yoshdan o'n oltigacha bo'lgan maxkumlarga yeti sutkagacha, o'n olti va undan katta yoshdagi mahkumlarga esa o'n sutkagacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi.

To'g'ri tarbiya kaloniyalarda jazo o'tash hibsxona borligini bildik. Lekin boshqa tomondan ham olib qaraganimizda kaloniyada rag'batlantirish choralari ham juda keng qo'llaniladi, bu voyaga yetmaganlarning axloqan tuzalishiga va qayta tarbiyalanishida sezilarli ahamiyatga ega. O'z o'rnida rag'batlantirish choralari ham maxkum xulqining ijobiyligi va mehnat normalarini bajarganligi inobatga olgan holda beriladi. Umuman olganda tarbiya kaloniyalardagi mahkumlarni qo'shimcha rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari ham Jinoyat ijroiya kodeksining 126 – moddasida o'z ifodasini topgan bo'lib, tarbiya kaloniyalarda mahkumlar Jinoyat ijroiya kodeksining 102 moddasida nazarda tutilgan rag'batlantirish choralaridan tashqari;



- muasassa hududidan tashqariga o'tkaziladigan madaniy tomosha va sport tadbirlarini ko'rishga yuborish.

- qisqa muddatli uchrashuv o'rniga ota – onasi va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoki yaqin qarindoshlari kuzatuvida sakkiz soatgacha bo'lgan muddatga erkinlikka chiqarish.

- hibsxonada bo'lish muddatini qisqartirish va undan muddatidan ilgari ozod qilish tariqasida rag'batlantirishlari mumkin.

Bilamizki tarbiya kaloniyasida mahkumlarga nisbatan tarbiyachilar tayinlanib, tarbiyachilar mahkumlarning kundalik faoliyatlarini belgilab beradi, nazorat qiladi va boshqaradi. Tarbiya kaloniyalarda mahkumlarni yengillashtirilgan sharoitga o'tkazish yoki hibsxonaga kiritib qo'yish tarbiyachining tavsiyasiga ko'ra, kaloniya boshlig'ining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Hozirda bunday tarbiya kaloniyalarda jinoyat sodir etib mahkumga aylangan voyag yetmaganlar anchani tashki qiladi. Xo'sh buni salbiy ta'sirini to'xtatish va bunga chek qo'yish uchun yurtimizda qanday ishlar olib borilmoqda, va nimalarga ko'proq etibor qaratish lozim. Shundan kelib chiqib O'zbekistonda yoshlar va voyaga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olis maqsadida ichki ishlar organlari va mahalla o'rtasida hamkorlik ishlari ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, aholi turar joylarda yoshlarning jinoyat sodir etilmasligi bo'yicha yaxshi natijalar bermoqda. Xususan jamoat joylarda sodir etilgan jinoyatlar 2002 yilda 8314 tani tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2003 yilda 3 foizga, 2004 yilda 4 foizga, 2006 yilda 5 foizga, 2007 yilda 6,1 foizga va 2008 yilda 6,7 foizga kamayganini ko'rish mumkin. Shuningdek yoshlar va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 2008 yilga kelib 5,4 foizga kamayganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning " Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak har kuni har daqiqa uning yurish turishi kayfiyatidan ogoh bo'lmasak, ularni ilm – u hunarga vaqtida o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas " deya ta'kidlangan fikrlaridan ham yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, vatanparvar etib tarbiyalash, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlarni sodir etilishining oldini olish dolzarb masalaga aylanganligini hamda bu boradagi qarashlarga endilikda jiddiy yondashuv ostida qarashimizni anlab olsak bo'ladi. Shu o'rinda huquqni muhofaza qiluvchi targ'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikni oldini olish, profilaktik chora – tadbirlar ko'rishga e'tiborini kuchaytirdilar.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ularning sodir etilishiga sharoit tug'diruvchi vaziyatlarni bartaraf etish, davlat va jamiyat oldida turgan asosiy muommolardan biri hisoblanadi. Chunki voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat sodir etishlari kelgusida ularning retsidivist jinoyatchi bo'lish ehtimolini oshiradi hamda bu holat mamlakatning kelajagi tarraqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Umumiy jinoyatchilikdan farqli ravishda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi mamlakatning kelgusidagi taqdiri bilan bog'langan bo'lib, ushbu muommoga bugungi kunda alohda e'tibor bilan yondashilmasa uning millat kelajagiga salbiy ta'siri ortib ketishi mumkin.

Xulosa



Xulosa qilib aytganimizda yurtimizda voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni o'z vaqtida oldini olish ishlariga keng nazar tashlamasak va bunga doim befarq ko'z bilan qarasak buning oqibati yaxshi tus olmaydi. Nagaki har yilni o'zida statistic malumotlarga qaraganimizda buning guvohi bo'lishimiz tabiiy albatta. Yuqorida ta'kidlaganimizdek Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquq buzilishlarning sabablari oiladagi, turmushdagi, jamoadagi nosog'lom muhit kabilar bo'lishi mumkin. Shuni ham nazarda tutishimiz kerakki manaviy bo'shliqni ham ilmiy tomondan to'ldirib borilishi va sport va shunga o'xshash boshqa to'garaklarga jalb qilinishi yoki o'zining qizziqan sohasi bo'yicha hunar o'rganishi, bu boradagi kerakli bilimlarni puxta va tez o'rganishi va eng muhimi ota – onaning ham bola uchun kerakli sharoitlarni yetkazib berishi va bunga jiddiy qarashi kerak deb o'ylayman. Jamiyatimoizda ma'nan yetuk bo'lgan yoshlar albatta kerakdir. Ular o'zintilishlari va salohiyatlari bilan kerakli yutuqlarga erishganliklarini ko'rish naqadar quvonarli desak ham bo'ladi

Buning uchun esa biz yoshlar ko'proq kitob mutola qilishimiz oz salohiyatimizni ko'rsata olishimiz ko'proq ti o'rganib dunyo oliy o'quv yurtlarga borib o'qib o'zimizni har jabhada ko'rsata olishimiz kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Jinoyat ijroiya huquqi darslik 2024.
- 2.Jinoyat ijroiya kodeks 2025
- 3.Qodirov E. Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish masalalari – Toshkent: Nishon noshir 2017.
- 4.O'zbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat va mafkura – Toshkent 1996.
- 5.Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutasiyasi 2023 yil 30aprel.